

**TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA  
AMALIYOTCHI PSIXOLOG VA OTA-ONALAR BILAN OLIB  
BORILADIGAN PSIXOPROFILAKTIK ISHLAR.**

*Karimova Muxayyo Nazar qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti, Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.*

Tel: (88)075 33 34

Har bir millat oila va u bilan bog'liq jarayonga alohida e'tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avlodlardan avlodga yetkazib kelmoqdalar. Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a'zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o'rganiladi. Oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir. Bo'lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning "Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating" degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmi, tarbiyasi hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladagi muhit ham sog'lom va oila mustahkam, farovon bo'ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma'naviy psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbek oilasidagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e'tibor, erkak bilan ayol munosabatining o'ziga xosligi, insoniy fazilatlarining shakllanish me'yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodida (Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan.

Judet Vallerstayn va Jon Kellilar Kaliforniya shtatida ajralgan oltmishta oilaning bolalari hayotini o'rganib, ajralish holatlarining salbiy oqibatlari bolalar uchun nihoyatda og'ir kechishini ta'kidlashgan. Ye.Burgess, P.Vollin, L.Terman va M.Odema, G.Rolandlar keng qamrovli tadqiqotlariga tayanib er-xotinlikdan qoniqishda sheriklarga xos sifat va fazilatlarining bir qancha turlari mos kelishi

zarurligini qayd etganlar. L.Vigotskiy, D. Elkonin, A.N.Leontev, G.Andreeva-Rossiya psixologlarining shaxsga faoliyatli yondashuv nazariyalari. Ijtimoiy psixologiyadagi ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi (S.Moscovichi, J.Codol, A. Donsov, T.Emelyanova, V.Karimova va b), oilaviy hayot faoliyati aks ettirilishi jarayonini aniqlashga doir nazariyalar (A.Xarchev, S.Golod, Z.Yankova, H.Yurkevich, V.Sisenko, N.Solovev, D.Kutsar, T.Mishina).

Fayziyeva Mavlyuda Xudoyorovna “Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida oila barqarorligini ta'minlovchi omillarni, oila barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni, hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, oilada shaxslararo munosabatlar tengligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rgangan[2].

Lutfullayeva Nigora Xalimbayevna “Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida talabalar oilasi-ijtimoiy psixologiyadagi kichik guruh sifatida o'rganilgan. Ilmiy ishda bu davrdagi o'zgarishlar, talabalik hayotiga monand munosabatlar, er va xotin roliga xos mas'uliyat, o'ziga xos ijtimoiy mavqe doirasida bo'lib, unda boshqacha qadriyatlar tizimi, ota-onali, turmush o'rtoqlik haqidagi tasavvurlar kuzatiladi.

O'zbek xalqimizda qadim-qadimdan oila muqaddas dargoh sanalgan. Albatta, oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr tadqiqot yo'nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda oila mustahkamligini taminlash, oilaga qizlarni tayyorlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar ajralishlar sonini kamayishi, oilalarda sog'lom psixologik muhit yaratilishi, jamiyatning ma'naviy va moddiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Sababi, mustahkam oilalar sonining oshishi va bu oilada tarbiyalanayotgan yoshlarda faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma'naviy va jismonan sog'lom, mehnatda, o'zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, atrofdagilarga mehr-oqibatda bo'lish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Qiz bola turmush qurgandan so'ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqeyi tubdan o'zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati o'zgarishi kuzatiladi. Mazkur o'zgarishga nisbatan o'zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o'z o'rniga ega bo'la olishida

muloqot madaniyatining ahamiyati kattadir. Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan biri bu - o'z-o'ziga yo'riqnoma berishi ya'ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o'stirish hisoblaniladi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko'ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o'zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o'zi kelin bo'lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

**Xulosa va takliflar:** Talaba qizlarga ta'sir etuvchi har bir jabhani atroflicha o'rganib, o'sha omil uning kelajakdagi turmush hayotida qanday natija ko'rsatishi mumkinligini ilmiy prognoz qilish va ularning qadriyatlar tizimidan kelib chiqib ularga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni yanada ko'paytirish, ularni kelajak maqsadlarini to'g'ri belgilashida ko'maklashish zarur. Oila mustahkam va kelajak avlod baxtli bo'lishi uchun qizlarimiz ongiga oila muqaddas qadriyat ekanligini, ayolning jamiyat va oiladagi o'rnini anglatishimiz kelajakda ham ishbilarmon, ham oilaparvar ayollarimizni ko'payishiga sabab bo'ladi, bu esa oilalarda psixologik iqlimni yaxshilanishiga va albatta ajralishlar sonini kamayishiga olib keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi: Darslik-T.: "Sharq", 2014.272-bet.
2. Fayziyeva M, Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.- T.: "Sharq", 2007.42-bet.
3. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ХАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
4. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
5. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
6. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
7. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

8.Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАТСИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

9.qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.

10.Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 86-88.

11.Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. *O'zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 1(6).

